

HOZIRGI KUNDA O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGI VA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Mamadaliyeva Mumtozbegim Otabek qizi

*Andijon Davlat Pedagogika instituti
magistratura 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Quyidagi maqola erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik haqida tushuncha beradi. Bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushunchadir. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *tenglik, tengsizlik, gender ko'rsatkich, huquqlarni himoya qilish, statistika, ayol baxti, xalq qarashi, stereotiplar, rivojlanish.*

Yurtimizda kundan kunga xotin qizlarga bo'lgan xurmat va e'tibor yuksalmoqda va ayollarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'yicha sa'y harakatlar amalga oshirilmoqda. Xotin qizlarning huquq va shaxsiyatları qonunimiz va davlatimiz tomonidan himoya qilinmoqda. Ayol qizlarning har sohada ilg'or va bardavom harakat qilishlari boshqaruvin tizimlarida ham ayollarning yuksak faoliyat olib borishlari bunga yaqqol misol bo'ladi. Bugungi kunda siyosatda ham ko'p qo'llanilayotgan ayollar borasida ishlatilayotgan so'z gender tenglik nima degani? Bu so'zni eshitganda ko'pchilik gender tenglikda notog'ri xulosa qilishadi. Xuddiki bunda ayollarning erkaklardan ustun bo'lishi tushuniladi. Vaholanki, gender tenglik boshqacha tushuncha. Gender tenglik deganda erkaklar va ayollarga hamma narsada teng imkoniyatlar berilishi, ya'ni ta'lim olish, kasb tanlash lavozimlarda ham ayollarga va erkaklarga birdek imkoniyatlar yaratilishi bu - gender tenglik deyiladi. Nafaqat O'zbekistonda balki Jahon miqqosida bu ibora keng surilmoqda va ayollar turli soxadagi kenglashlarda raxbar, ma'sul, hokim, deputat va hattoki senator o'laroq kuchli ma'suliyat va energiya bilan o'z faoliyatlarini muvaffaqiyatli va vijdanan olib borishmoqda. Ishonchim komilki, shu yaqin yillarda ko'plab vazirlar ham xotin qizlar orasidan saylanadi. Ayollarda o'ziga bo'lgan ishonch, yuksak bilim va ma'suliyat, oila hamda kariyerani birdek ushlay olgan, ikkisida ham kuchli enegriya bilan faoliyat olib boradigan bilimli va salohiyatli xotin qizlarimiz soni kundan kunga ko'payaversin.

Ayollar har sohada o'zlarini rivojlantira olishlari uchun ularga turli xil imkoniyatlar yaratildi. Xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash jamg'armasi hamda Ayollar daftari jamg'armasi kabi bir qator imkoniyatlar berilgan. Bu imkoniyatlardan o'zbekiston xotin qizlari keng va samarali foydalanishmoqda. Uzoq muddatga foizsiz kreditlar hamda Prezidentimiz tarafidan ayollarni tadbirkor ayol obrazida foydalanishi mumkun bo'lgan turli xil subsidiyalar taqdim etilmoqda. Mazkur holatlar insonni ayniqsa xotin qizlar judayam mamnun qiladi. Endi ayollar faqatgina uyda farzand tarbiyasida emas

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

jamiyatda ham turli xil yo'nalishlarda faoliyat olib borishlari, muvaffaqiyatga ko'plab qo'llab quvvatlashlar orqali erishishlari insonni ayniqsa ayollarni quvontiradi. Bunga yaqqol misol tarzida ayta olamanki, Prezidentimiz tarafidan ajratilayotgan ipoteka kreditlari bo'yicha ajratilayotgan subsidiyalarning kamida 40% foizini xotin qizlarga ajratilishi belgilab berilgan. Jamiyatimizda xotin qizlarning yahshi ta'lim olishi va kasb xunar egallashi uchun yetarlicha shart sharoitlar yaratilib berildi. Yurtimizda nafaqat ayollarning rivojlanishiga balki havf hatarsiz tinch hayot kechirishi, turli xil zo'rovonliklar ayniqsa oiladagi ayollarga bo'ladijan zo'ravonliklarga uchramasliklari uchun ham davlatimiz ayollarni himoya qilmoqda . Turli xil tayziq va zo'ravonlikka uchragan ayollar soni ham kamayib bormoqda. Nafaqat bugun o'tmishga nazar solsak ham , aynan bizning yurtimizda buyuk insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan fozila olima onalarimiz bisyor. O'zbek xalqi azal azaldan onaga va ayolga bo'lgan xurmat ehtirom avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

Ayollarning ham siyosiy ham iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatlari jaddalashib Ayol va qizlar qay sohada bo'lmasin ularning haq huquq va manfaatlari himoya qilinmoqda va rivojlantirishga juda ham katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz ham ayollarni qo'llab quvvatlash haqida quyigadigi fikrlarni bildirdilar ; Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xohlasak, avvalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa, jamiyat rozi bo'ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda ayolning manfaati qadr va qimmati yuksak o'ringa qo'yilgan.

Men ham bir qiz va ayol sifatida berilgan va berilayotgan imkoniyatlardan juda ham xursandman. Ayol o'zini baxtli his qilgandagina atrofiga ham baxt ulasha oladi. Ayol baxtli bo'lsa oila ham farzandlari ham yetuk va barkamol avlod bo'lib voyaga yetadi. Xotin va qizlarning har sohada o'zini rivojlantira olishi har sohada hech kimdan kam bo'lmay faoliyat olib borishi va ko'plab yutuqlarga erishishi bu nafaqat ayolga va uning jamiyatiga ham katta muvaffaqiyat keltiradi. Bunga yaqqol misol sifatida Shohida Yusupovani aytib o'tishim mumkun. O'zbekistondagi minglab ayol va qizlarning o'z sohalarida ko'plab yutuq va natijalarga erishishiga yordam berib kelmoqda. Biz barcha O'zbek ayol qizlari yurtimizni butun dunyoga tanitadigan vatanimiz rivoji uchun hissa qo'shadigan mana shunday ayollar safida bo'lish uchun xarakat qilamiz! Har bir ayol qizning shaxsiy biznesi yoki faoliyati bo'lishi muhum. Bunday imkoniyatlarni ayollarning moliyaviy mustaqil bo'lishlariga ham yordam beradi. Statistikalarga qaraganda O'zbekistonda erkaklarga nisbatan ayollarning o'qishga bo'lgan layoqati ko'proq bo'lgani aniqlandi. Har bir ayol bilimli va o'z shaxsiy fikriga ega bo'lganda turli xil zo'ravonliklar, ayollarni kamsitish kabi holatlar ham kuzatilmaydi. Bizning Andijon Davlat Pedagogika Institutida ham ayollar uchun barcha shart sharoitlar yaratilgan. Hozirda Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistratura birinchi bosqichi talabasiman. Bizning sohamizda yani ta'limning negizi bo'lgan eng ustuvor talab va e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan sohalardan biri deb hisoblayman. Bu sohada esa faqatgina ayollarning faoliyat olib borishlari maqsadga muvofiq. Yosh avlodni vatanparvarlik hissi bilan

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

tarbiyalash, oilasiga atrofidagi insonlarga mehr va muhabbatli holda ulg'aytirish biz ona va tarbiyachilarning ustuvor vazifamiz hisoblanadi. Yigirma birinchi asrda deyarli barcha sohalarda faoliyat olib borayotgan ayol qizlar turli hil yutuqlarga erishishmoqda. Bunga sabab esa Yurtimizda ayol va qizlarga ko'rsatilyotgan e'tibor va yaratilayotgan shart- sharoitlarning natijasidir. Men shunday harakatchan kelajak uchun poydevor bo'la oladigan yoshlarning va nafaqat o'zining va yurtining rivojlanishi dunyo miqyosida tanilishi uchun hissa qo'shayotgan xotin qizlarning safida ekanimdan faxrlanaman.

